

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov, A.U.G'ofurov</b> Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik mazmuni .....	9
<b>B.Sh.Shermuhammadov, D.R.Murodova</b> Fanlararo integratsiya asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli .....	16
<b>N.M.O'rinova</b> Xorijiy ta'limda tyutorlik faoliyatining mohiyati va funksiyalari .....	20
<b>B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish .....	24
<b>B.A.Umarov</b> Raqamli texnologiyalar vositasida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirish tamoyillari .....	28
<b>I.M.Saidov</b> Vatanparvarlik va yuksak ma'naviy tarbiya - uchinchi renessans poydevorining omili .....	33
<b>M.I.Alimjonova</b> Ta'limning globallashuvi sharoitida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni.....	37
<b>I.I.Yo'lbarsova</b> Talabalarda bioetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-tarixiy an'analari hamda zamonaviy yondashuvlari.....	45
<b>M.I.Alimjonova</b> Talabalarni madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli.....	49
<b>F.A.Ibroximov, B.M.Jo'raqo'ziyev</b> Mafkuraviy immunitet va uning zarurati .....	56
<b>Z.J.Pardaeva</b> Mustaqillik davri o'zbek romanchiligi: badiiy va ilmiy tafakkur masalalari.....	60
<b>F.A.Ibroximov</b> Huquqiy fanlarni o'qitilishidagi uzviylik va uzluksizlikning mavjud holati.....	70
<b>L.D.Tuganova</b> Gender va ta'limda tenglik muammosi.....	75
<b>Sh.X.Tog'aeV</b> Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy masalalari .....	78
<b>A.R.Saydullayeva</b> Talabalarda gender madaniyatini rivojlantirishning tuzilishi va tarkibiy qismlari .....	83
<b>G.S.Raxmonova</b> Nostandart tafakkur tarzini rivojlantirishda mustaqil ishlarning pedagogik imkoniyatlari.....	87
<b>M.R.Usmanov</b> O'tish davri yoshidagi ruhiy o'zgarishlarning rivojlanish xususiyatlari.....	93
<b>X.Y.Jo'rayeva, M.T.Turkistonova</b> Oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanlarini o'qitishning nazariy asoslari .....	97
<b>E.S.Yuldashyev</b> Bo'lg'usi o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	101
<b>G.B.Karimova</b> Jismoniy tarbiya fanning interfaol ta'lim usullari va ularni innovatsion faoliyatini shakllantirish ....	107
<b>F.O'.Toshboltayev</b> Zamonaviy ta'limda pedagogik imkoniyatlar va axborot texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash .....	111
<b>S.D.Akzamov</b> Jismoniy tarbiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni bolalar va o'smirlar organizmiga ta'siri .....	115

## HUQUQIY FANLARNI O'QITILISHIDAGI UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIKNING MAVJUD HOLATI

## СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ИНТЕГРАЦИИ И ПРЕЕМСТВЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

## CURRENT STATE OF INTEGRATION AND CONTINUITY OF TEACHING LEGAL SCIENCES

Ibroximov Farxodjon Anvarjon o'g'li<sup>1</sup><sup>1</sup>Ibroximov Farxodjon Anvarjon o'g'li

– Chirchiq davlat pedgogika universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada yurtimiz ta'lim muassasalarida olib borilayotgan huquqiy fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlari, bu jarayonda ta'lim mazmuni uzviyligining ta'minlanishi mavjud holati, mavjud muammo va kamchiliklar, ularning yechimiga doir masalalar ilmiy-metodik tahlil qilingan. Shu bilan birga, huquqiy ta'limning samaradorligiga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlar, ularning huquq dars mashg'ulotlarida qo'llashga oid tavsiyalar xorijiy va mahalliy tajribalardan kelib chiqib ilgari surilgan. O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturining mazmun-mohiyatini yoritish ham maqsad qilingan. O'rganilgan holatlar tahlilidan kelib chiqib, o'quvchi-yoshlarning huquqiy madaniyatini va huquqiy masalalarda faoliyat yuritish – munosabat bildirish ko'nikmalarini oshirishga doir takliflar ilgari surilgan.

**Аннотация**

В данной статье проводится научно-методический анализ правовых исследований, проводимых в образовательных учреждениях нашей страны, современное состояние обеспечения целостности содержания образования в этом процессе, существующие проблемы и недостатки, вопросы, связанные с их решением. При этом на основе зарубежного и отечественного опыта выдвинуты современные подходы, служащие эффективности юридического образования, рекомендации по их применению на юридических занятиях. Также призвано разъяснить сущность Национальной образовательной программы в области прав человека в Республике Узбекистан. На основе анализа изученных дел были выдвинуты предложения по повышению правовой культуры студентов и навыков действия и реагирования на правовые вопросы.

**Abstract**

In this article, there is a scientific and methodical analysis of the lessons of legal subjects conducted in the educational institutions of our country, the current state of ensuring the integrity of the educational content in this process, the existing problems and shortcomings, and the issues related to their solution. At the same time, modern approaches that serve the effectiveness of legal education, recommendations for their application in law classes have been put forward based on foreign and local experiences. It is also intended to clarify the essence of the National Education Program in the field of Human Rights in the Republic of Uzbekistan. Based on the analysis of the studied cases, proposals were put forward to improve the legal culture of students and the skills of acting and reacting to legal issues.

**Kalit so'zlar:** Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturi, ta'limda uzviylik, huquqiy fanlar tasnifi, zamonaviy yondashuv va metodlar, tizimli-strukturaviy yondashuv, mavjud muammolar, sinfdan tashqari ta'lim, keys va kazuslar, birgalikda o'rganish.

**Ключевые слова:** Национальная программа образования в области прав человека, добросовестность в образовании, классификация субъектов права, современный подход и методы, системно-структурный подход, существующие проблемы, внеклассное обучение, кейсы и кейсы, совместное обучение.

**Key words:** National Human Rights Education Program, integrity in education, classification of legal subjects, modern approach and methods, systemic-structural approach, existing problems, out-of-class education, cases and cases, joint learning.

**KIRISH**

Ma'lumki, ta'lim tizimida yuksak samaradorlikka erishish nafaqat milliy muammolarni, balki mintaqaviy hamda global muammolarni hal etishning ham asosiy va yagona yechimi hisoblanadi. Bu esa ta'limda uzviylikning ta'minlanishi hamda sifatli, yetuk malakali, sog'lom va mustaqil fikrli kadrlarning tayyorlanishi bilan belgilanadi. Shuni anglagan holda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida "Ta'limning uzluksizligi va izchilligi" alohida tamoyil sifatida belgilangan.[1] Davlat ta'lim standartining markazida, barcha mamlakatlar ta'lim tizimida bo'lgani kabi uzluksizlik tamoyili turadi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qaror bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti"da ham umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va

## PEDAGOGIKA

bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining asosiy prinsiplaridan etib belgilangan.

Barcha predmetlar singari huquqiy fanlarning o'qitilishida ham bu tamoyilning to'laqonli ta'minlanishiga erishish fanni o'qitish metodikasi bilan bevosita bog'liq.

Ta'limning uzluksizligi - bu bola rivojlanishining barcha bosqichlarida yagona uzluksiz ta'lim jarayonini yaratish uchun o'qitish va tarbiyalashning asosiy vazifalari, mazmuni va usullarining o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan aloqalar tizimi.

Mashg'ulotlarning har bir vaqt oralig'ida o'qituvchi aniq vazifalarni hal qiladi. Bu vazifalarning aloqadorligi va uzluksizligi o'quvchilarning bilish, xulq-atvor va faoliyat(aytish mumkin bo'lsa huquqiy madaniyati)ning oddiy shakllaridan murakkabroq shakllariga o'tishi, ularning izchil hal etilishini ta'minlash uchun sharoit yaratadi. Tizimlilik va izchillik ma'lum bir o'quv materialini o'zlashtirish tezligini, ularning taqqoslanishi va qiymatini tahmin qilish imkonini beradi. K.D.Ushinskiy "obyektlarning mohiyatidan kelib chiqadigan, albatta, oqilona tizimgina bizga bilimlarimiz ustidan to'liq hokimiyat beradi", deb hisoblagan.[2] O'qitishdagi izchillik va tizimlilik fanlar bo'icha bilim, ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirish zarurati bilan dunyoga yaxlit konseptual qarashni shakllantirish o'rtasidagi ziddiyatni hal qilishga imkon beradi. Bu, birinchi navbatda, dasturlar va darsliklarning tizimli qurilishi, fanlararo va fanlararo aloqalarni yo'lga qo'yish bilan ta'minlanadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida mamlakatimizda ta'lim muassasalari soni va sifati tobora o'sib bormoqda. Agar 2018-yilda mamlakatimizda 9 774 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 10 289 tani tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 515 taga ko'payganini ko'rishimiz mumkin. Nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni esa 135 tani tashkil etmoqda. Stat.edu.uz sayti ma'lumotlariga e'tibor qaratsak, ayni vaqtda O'zbekistonda 210 ta oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan 30 ta xorijiy OTM lar, 65 ta nodavlat OTM lar hamda 115 ta davlat OTMlari faoliyat yuritmoqda.[3]

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida ta'lim olayotgan o'quvchi-yoshlarda huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, ta'lim oluvchilarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda. Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan.

Umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalarga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

Maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi.

Ta'lim bosqichlari o'quvchi va tarbiyalanuvchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, ularning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturini ishlab chiqish va joriy etish vazifalari belgilandi. Bu esa sanoatning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish, sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, yuqori texnologiyali korxonalar, texnoparklar, ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish, zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini barpo etishga yanada keng imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida ta'lim olayotgan o'quvchi, talabalarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish juda

zarur. Bu omil nafaqat milliy doirada, balki xalqaro doiradagi masalalar uchun ham yechim bo'la olishini inobatga olinib, davlatimiz rahbari tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Yoshlar huquqlari to'g'risida"gi xalqaro konvensiyani ishlab chiqishni taklif etilgan.

Huquqiy fanlar o'quv mashg'uloti mazmuni va uni taqdim etish usullari o'quvchilarga hayotda kerakli huquqiy ko'nikmalarni shakllantirishi hamda ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga xizmat qilishi kerak. Shu boisdan ham huquqiy ta'lim mantiqiy ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Umumiy huquqiy fanlarni quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

1. *Tarixiy-nazariy huquqiy fanlar.* Bu guruh fanlarga Davlat va huquq nazariyasi, davlat va huquq tarixi, siyosiy-huquqiy ta'limotlar kabi fanlar taaluqli bo'lib, ular orqali o'quvchilarning umumhuquqiy terminlarga munosabati shakllantiriladi.

2. *Maxsus huquqiy fanlar.* Konstitutsiyaviy huquq, Oila, Fuqarolik, Jinoyat, Tadbirkorlik, Mehnat, Ijtimoiy ta'minot huquqi kabi huquqning muayyan sohasiga oid bilimlarni va masalalarni o'rganish va tahlil etish vazifasini bajaruvchi fanlar bo'lib hisoblanadi.

3. *Amaliy-huquqiy fanlar.* Dakteloskopiya (barmoq izlarini aniqlash haqidagi), sud bugalteriyasi, sud psixiatriyasi kabi huquqning amaliy muammolarini bevosita o'rganish bilan shug'ullanuvchi fanlardir.

Huquqiy bilim va ko'nikmalarning uzluksizligi aspekti o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning tartibga solinishi zaruratini, huquqiy-axloqiy tafakkurini shakllantirishni ta'minlaydi ya'ni butun maktab ta'limi davomida shakllanadigan o'quvchilarning huquqiy madaniyati elementlarini shakllantirish vazifasini bajaradi. Har bir bosqich vazifalarini bajarilishini ta'minlash asosida huquqiy ta'lim tizimining uzluksizligini amalga oshirish uning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ayni vaqtda mamlaktimiz umumta'lim maktablarida bu fanga quyidagicha soat ajratilganini ko'rishimiz mumkin: 8-sinfda 34 soatda hajmda Huquqshunoslik darsi mashg'ulolarida umumiy huquqiy tushunchalar va O'zbekiston Huquqiy tizimi haqida dastlabki bilimlar berildi.

9-sinfda 34 soatda hajmda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi fani bo'yicha dars mashg'ulotlarida asosiy huquq sohasi bo'lgan Konstitutsiyaviy huquqning huquq tizimida tutgan o'rni va ular bilan nisbati yoritilishi, Konstitutsiya qoidalari bilan tahliliy tanishtirilishi lozim. 10-sinfda O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy munosabatlar subyektini sifatidagi huquq va majburiyatlari, Konstitutsiyaviy prinsplar, Ma'muriy huquq, Fuqarolik huquqi va Mehnat huquqi qonunchiligining asosiy norma-qoidalari real hayotiy kazuslar bilan tushuntirilishi va zaruriy hayotiy huquqiy ko'nikmalar shakllantirilishi lozim. 11-sinfda esa 34 soat yillik hajmda Davlat va huquq asoslari fani mashg'ulotlarida Oila huquqi, Jinoyat huquqi, Moliya huquqi, Ekologiya huquqi va protsessual huquqqa oid bo'lgan huquqiy munosabatlar, ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati, tartibga solish mexanizmlari o'rgatiladi.

Huquqshunoslik fanlarini o'qitishning turli darajalariga o'tishda uzluksizlik masalalarini va ularni ta'minlash muammolarini quyidagi darajasida ko'rib chiqish zarur:

- maqsad va vazifalar (har bir bosqich, mavzuda uning asl maqsadi va shu masadga eltuvchi aniq vazifalarni belgilab olishda hamda shu vazifalarni to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillarning mavjudligi, boshqa sohalarida bo'lgani kabi faqat rasmiy hujjatlarga birinchi darajali e'tibor qaratilishi natijasida asosiy maqsadga erishilmasligi);

- darsliklarning mazmunidan kelib chiquvchi masalalar (darsliklar tizimining o'zaro mutanosibligidagi izchillikning yo'qolish holatlari);

- ta'limning tashkiliy shakllari (an'anaviy dars metod va vositalaridan keng foydalanilishi, aytish mumkin bo'lsa faqat an'anaviy metodlarning ustuvorligi, ya'ni ekskursiya shaklida, bevosita ko'rgazmali jarayonlar (masalan, sud-huquq idoralariga, deputatlar kengashlariga, Arxiv bo'limlariga tashrif buyurish) da olib borilmasligi);

- rejalashtirilgan tadbirlar (tadbirlarning o'quv vaqtida o'tkazilishi hisobiga dars mashg'ulotlarining ma'lum qismlari haqida ma'lumot berilmasligi);

- birgalikda harakat qilish ko'nikmasining shakllantirilmaganligi (ayrim xorijiy ta'lim muassasalarida berilgan vazifani bajarishda bir necha o'quvchi birgalikda, har biri o'z imkoniyatidan kelib chiqib taqsimlangan qismini o'rganib, qolgan qismini bir-biriga o'rgatish malakalarining yetarli emasligi) va h.k.

"Uzluksizlik deganda, ta'limning turli bosqichlari va shakllari chegaralaridagi uzluksizlik tushuniladi. Bularning pirovardida – ta'limning yaxlit tizimi doirasida ushbu bosqichlar yoki shakllarning yagona tashkil etilishi nazarda tutiladi".[4]

Barcha ta'lim jarayonlarida uning maqsad va xususiyatlariga, zamon talablariga mos va xos bo'lgan metodlarni to'g'ri tanlay bilishlik soha faoliyatining samarasini kafolatlaydi. Shu bois ham ingliz mutaffakkiri F.Bekon metodni yo'lni yoritib boruvchi "fonus chiroq"ga qiyoslagan.[5]

Zamonaviy o'qituvchi nafaqat uslubiy fikrlash va mustaqil tadqiqot ishlarini olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak, ayniqsa keng tanlov dasturlari, darsliklar, o'qitish texnologiyalari kontekstida, balki ijodiy qobiliyatlarga ham ega bo'lishi kerak. O'qituvchining kasbiy mahorati tadqiqot usullariga ega bo'lishni ham anglatadi.

Ulardan foydalanish zamonaviy ta'lim muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish zarurati bilan bog'liq. Bu yondashuv va metodlardan ayrimlarini ko'rib chiqsak.

**Tizimli-strukturaviy yondashuv.** Tizimli-strukturaviy yondashuv shundan iboratki, o'rganish predmeti o'zaro bog'langan elementlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida qaralib, birinchi navbatda bu elementlar orasidagi munosabatlar va o'zaro ta'sir o'rganiladi.

Bu yondashuvda o'rganilayotgan obyektning butun bir olam tizimida tutgan o'rni, o'zaro bog'liqligi va ahamiyati kabi masalalar *umumiylikdan xususiylikka tomon* metodi yordamida yoritiladi.

**Nazariy yondashuv.** Shu obyektga aloqador nazariy bilimlarni umumlashtirib xulosa qilish. Nazariy usullarni qo'llash tizimli-strukturaviy, tipologik va tarixiy kabi bir qator yondashuvlarga asoslanadi. Ular o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarning qonuniyatlarini ochib berishga imkon beradi.

**Tipologik yondashuv.** Bu yondashuv esa o'rganilayotgan obyektning shu turdagi boshqa obyektlar bilan o'zaro bog'liqligi va o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Tipologik yondashuvni qo'llash o'rganilayotgan obyektlar va hodisalarni guruhlash va ularning muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Tipologik yondashuvdan amalda foydalanilganda metodologiya fanining barcha muammolari o'rganiladi.

**Tarixiy yondashuv** esa o'quvchilarning barcha fanlardan olgan bilimlarini o'zaro birgalikda qo'llab umumiy xulosa olishga xizmat qiladi, mustaqil fikrlash qobiliyati ortishiga, masalaga turli nuqtai nazardan yondoshishga chorlaydi.

Huquqshunoslik fanlarini o'qitishda amaliy yo'naltirilganlik tamoyilini amalga oshirishga yo'naltirilgan ishlarning maqsad va natijalariga samarali erishish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish zarur, deb hisoblaymiz:

1. O'qitish mahoratining muvaffaqiyati ko'p jihatdan uzluksizlik, ularning darsdan darsga, bir mavzudan ikkinchisiga o'tishi bilan belgilanadi. O'qituvchi malakani egallash darajasini doimiy ravishda kuzatib borishi kerak. Bu jarayon taqvim-tematik rejalashtirish to'plamida aks ettirilishi kerak.

Bundan tashqari, turli darslar orasida tematik rejalarni tuzishda, asosiy vazifasi o'quvchilarning huquqiy ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishdan iborat bo'lgan maxsus darslarni ajratib ko'rsatish tavsiya etiladi. Bunday darslar amaliy mashg'ulotlar sifatida olib boriladi, ular didaktik maqsadiga ko'ra harakatning texnikasi va usullarini o'rgatish, ularni tizimlashtirish va umumlashtirish, shuningdek, maktab o'quvchilarining muayyan ko'nikmalarni egallash darajasini tekshirish (nazorat qilish)ga qaratilishi lozim.

2. Maktab o'quvchilarining malakasini shakllantirish va rivojlantirish ishlarini fan o'qituvchilari bilan muvofiqlashtirish zarur. Masalan, Statistik ma'lumotlar bilan ishlashda informatika fani o'qituvchilari bilan bog'lanish talab qilinadi.

3. Amaliy ishni tashkil etish maktab o'quvchilari harakatlari tilida shakllantirilgan, aniq belgilangan maqsadga bo'ysunishi kerak.

4. Amaliy ish uchun topshiriqlar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- qisqacha talablar ("kazu tuzing", "muayyan huquq sohasiga aloqador huquqiy manbalarini yig'ing");

- ko'rsatmalar va harakatlar rejalari ("mavzuga aloqador keyslarni jamoaviy tahlil qilinglar");

- "WENN diagrammasi" asosida qiyoslanayotgan obyektlarning o'ziga xos va umumiy xususiyatlarini ochib berish;

- "BBB" metodiga asoslanib o'rgangan mavzulariga munosabat bildirish va h.k.

Mamlakatimizning hozirgi vaqtdagi statistik hisobotlarga e'tibor qaratsak, birgina 2022-yilda 10 289 ta maktabni 442 893 nafar yoshlar hamda Akademik litseylarni 17 300 nafar, shuningdek kasb-hunar kollelari 4052 nafar, barchasi jami 464 245 nafar bitiruvchilar hisoblanadi. 2022-yilda 1 214 232 nafar abituriyent Oliy ta'lim muassasalariga hujjat topshirgan. [5] O'rganilgan holatlar

tahlilidan shuni xulosa qilsak bo'ladiki, ta'lim tizimimizda huquqiy fanlar o'qitilishidagi uzviylik to'la ta'minlanmoqda deb ayta olmaymiz, albatta. Bunda bir qator quyidagi omillar ta'sir etmoqda:

- a) ayrim markaziy hududlarda pedagog kadrlarning qo'nimsizligi (Toshkent shahri);
- b) o'qituvchilarning malaka oshirishi tizimining mavjud an'anaviy shaklga ega holati;
- d) o'qituvchilarda auditoriya uchun bu fanga oid bilimlar naqadar zarur ekanligini yetkazib berish mahoratining lozim darajada emasligi;
- e) ta'lim tizimimizda sinf va sinfdan tashqari dars mashg'ulotlari uchun moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi yoki eskirganligi;
- f) ota-onalarning o'zlarini ta'lim subyekti sifatida ko'rmasliklari va jamoat tashkilotlari faoliyatining sustligi;
- g) ta'lim boshqaruvi tashkilotlari (ta'lim vazirliklari va ular quyi bo'g'inlari) xodimlarining yetarli darajada tashabbuskor emasliklari, shu bilan birga ularning metodik manbalar bilan ta'minlash ishlariga loqayd qarashlari holatlarining mavjudligi va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, huquq fanlarini o'qitish metodikasi tizimida samarali natijalarga erishish uchun avvalo, yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etishga, shu bilan birga, ta'lim sifatini hamda bo'lajak kadrlar salohiyatini yanada oshirish uchun barcha ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ta'minlash lozim, deb hisoblaymiz. Zero, "Ta'lim sifatini oshirish — Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir". [7]

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni Yangi tahriri.
2. Ушинский К.Д. Собрание сочинений: В 11 т. - М., 1950. - Т. 5. - С. 355.
3. <https://stat.edu.uz/>
4. Ахутина Т. В. Психология, лингвистика и междисциплинарные связи: сборник научных работ к 70-летию со дня рождения Алексея Алексеевича Леонтьева. — М.: Смысл, 2008.
5. <https://t.me/Baholash.uz>
6. Ф. Бэкон, Соч. в 2-х тт, т.2-й, Примечания, указатели, М., «Мысль», 1972, с.548-549
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan. 20.12.2022-yil.